

## Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qashqadaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4338,0 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 4191,6 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 132,9 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 13,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

### Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



### II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida

2025-yilning yanvar-mart oylarida tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Chiroqchi (396,9 mlrd so'm), Kitob (383,1 mlrd so'm), Koson (372,1 mlrd so'm), G'uzor (329,9 mlrd so'm), Shahrisabz (322,7 mlrd so'm) va Dehqonobod (314,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (73,6 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (21,4 mlrd so'm) va Ko'kdala tumanini (220,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	4338,0	103,7
Qarshi shahar	73,6	88,2
Shahrisabz shahar	21,4	100,9
G'uzor tumani	329,9	103,2
Dehqonobod tumani	314,3	102,5
Qamashi tumani	268,3	103,4
Qarshi tumani	300,0	103,7
Koson tumani	372,1	103,7
Kitob tumani	383,1	103,4
Mirishkor tumani	237,6	102,1
Muborak tumani	240,4	104,4
Nishon tumani	279,3	104,5
Kasbi tumani	291,5	104,1
Ko'kdala tumani	220,8	105,6
Chiroqchi tumani	396,9	107,7
Shahrisabz tumani	322,7	103,7
Yakkabog' tumani	286,1	103,4

Tumanlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi (107,7 %), Ko'kdala (105,6 %), Nishon (104,5 %), Muborak (104,4 %) va Kasbi (104,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa tumanlarga nisbatan Qarshi shahar (88,2 %), Shahrisabz shahar (100,9 %), Mirishkor (102,1 %), Dehqonobod (102,5 %) va G'uzor (103,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4125,9 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 217,3 mlrd so'mni (104,5 %), chorvachilik mahsulotlari 3908,6 mlrd so'mni (103,5 %) tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Chiroqchi (378,9 mlrd so'm), Kitob (362,2 mlrd so'm), Koson (355,4 mlrd so'm) va G'uzor (317,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (68,7 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (20,3 mlrd so'm) va Ko'kdala tumanini (206,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi (107,2 %), Ko'kdala (105,4 %), Nishon (105,2 %) va Muborak (104,2 %) tumanlarida qayd etildi. Qarshi shahar (89,8 %), Shahrisabz shahar (100,8 %) va Yakkabog' (102,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 89,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,3 % i fermer xo'jaliklariga, 2,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Tumanlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Chiroqchi (369,0 mlrd so'm), Koson (335,6 mlrd so'm), Kitob (333,7 mlrd so'm), Dehqonobod (309,0 mlrd so'm) va G'uzor (308,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (66,0 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (19,3 mlrd so'm) va Ko'kdala tumanini (198,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi (107,3 %), Ko'kdala (105,4 %), Nishon (105,2 %), Kasbi (103,9 %) tumanlarida qayd etildi. Qarshi shahar (89,3 %), Shahrisabz shahar (100,6 %), Yakkabog' (102,1 %) va Mirishkor (102,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 47,8 ming tonna go'sht, 156,0 ming tonna sut, 100,2 mln dona tuxum, 69,2 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 0,4 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, sog'ib olingan sut – 102,7 % ni, olingan tuxum – 100,4 % ni, olingan qorako'l teri – 104,9 % ni hamda ovlangan baliqlar – 95,0 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 5,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 6,5 % i fermer xo'jaliklari, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi  
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025-y.	O'sish sur'ati % da
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>47,8</b>	<b>104,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,5	122,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	44,3	103,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,0	113,8
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>156,0</b>	<b>102,7</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,1	114,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	143,7	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,2	119,2
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>100,2</b>	<b>100,4</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,1	2,0 m.
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	60,6	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	32,5	90,6
<b>Jun, tonna</b>	-	-
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
<b>Qorako'l teri, ming dona</b>	<b>69,2</b>	<b>104,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	8,0	130,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	56,7	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,5	116,0
<b>Baliq, ming tonna</b>	<b>0,4</b>	<b>95,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,2	173,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,01	103,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	56,1

Shu bilan birga, olingan tuxumning 7,1 % i fermer xo'jaliklariga, 60,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 11,5 % i fermer xo'jaliklariga, 82,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 58,3 % i fermer xo'jaliklariga, 3,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 38,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

### Tumanlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<b>Go'sht</b> (tirik vaznda), tonna	<b>Sut,</b> tonna	<b>Tuxum,</b> ming dona
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>47760</b>	<b>155998</b>	<b>100241</b>
Qarshi shahar	978	625	4137
Shahrisabz shahar	196	1191	249
G'uzor tumani	3887	11656	5287
Dehqonobod tumani	4554	5515	2096
Qamashi tumani	2887	10063	11339
Qarshi tumani	3204	11691	4444
Koson tumani	4034	14252	6377
Kitob tumani	3867	15644	6358
Mirishkor tumani	2485	9486	4523
Muborak tumani	2582	9372	3309
Nishon tumani	3439	6184	1701
Kasbi tumani	2675	15085	4363
Ko'kdala tumani	2352	7850	10611
Chiroqchi tumani	4406	16310	6852
Shahrisabz tumani	3159	13009	17853
Yakkabog' tumani	3055	8065	10742



### Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Tumanlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Kitob (28,5 mlrd so'm), Kasbi (21,8 mlrd so'm), Qarshi (21,7 mlrd so'm), Yakkabog' (20,0 mlrd so'm) va Koson (19,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Dehqonobod tumanini (0,9 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (1,0 mlrd so'm) va Qarshi shaharini (2,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Muborak (110,9 %), Nishon (105,2 %) tumanlari, Mirishkor (104,9 %), Ko'kdala (104,8 %) va Kasbi (104,7 %) tumanlarida qayd etildi. Qarshi shahar (101,6 %), Shahrisabz shahar (103,4 %) Qarshi (103,0 %), va Shahrisabz (103,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### Tumanlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3299</b>	<b>104,9</b>
Qarshi shahar	144	101,4
Shahrisabz shahar	27	102,7
G'uzor tumani	107	104,2
Dehqonobod tumani	-	-
Qamashi tumani	137	105,0
Qarshi tumani	649	101,6
Koson tumani	221	106,4
Kitob tumani	562	102,4
Mirishkor tumani	90	109,3
Muborak tumani	360	120,3
Nishon tumani	95	109,9
Kasbi tumani	220	105,8
Ko'kdala tumani	29	111,2
Chiroqchi tumani	52	103,0
Shahrisabz tumani	363	102,2
Yakkabog' tumani	243	101,6

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qarshi tumani (19,7 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Kitob (17,0 %), Shahrisabz (11,0 %),



Muborak (10,9%), Yakkabog' (7,4%) va Koson (6,7%) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qarshi shahar (0,8%), Ko'kdala (0,9%) va Chiroqchi tumanida (1,6%) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muborak (120,3%), Ko'kdala tumani (111,2%), Nishon (109,9%), Mirishkor (109,3%), Koson (106,4%), Kasbi (105,8%) tumanlari, Qamashi (105,0%) va G'uzor tumanida (104,2%) qayd etildi.

#### IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1761,6 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 2,1% ga ko'p), sigirlar 578,6 ming boshga (2,3% ga ko'p), qo'y va echkilar 5073,9 ming boshga (2,7% ga ko'p), parrandalar 6335,2 ming boshga (4,1% ga ko'p) yetdi.

#### 2025-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>1761,6</b>	<b>102,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	118,6	118,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1623,4	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	19,6	114,6
<b>shundan sigirlar</b>	<b>578,6</b>	<b>102,3</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	50,7	120,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	520,4	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,5	118,8
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>5073,9</b>	<b>102,7</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	464,2	115,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4307,7	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	302,0	104,6
<b>Otlar</b>	<b>37,0</b>	<b>103,7</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,0	116,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	29,1	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,9	112,1
<b>Parrandalar</b>	<b>6335,2</b>	<b>104,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	427,2	147,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4505,6	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1402,4	107,0



2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,8 % i fermer xo'jaliklariga, 89,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,1 % i fermer xo'jaliklariga, 84,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 6,7 % i fermer xo'jaliklariga, 71,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

### 2025-yilning 1-aprel holatiga tumanlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1761644</b>	<b>5073863</b>	<b>6335227</b>
Qarshi shahar	5582	17497	234666
Shahrisabz shahar	9232	9995	65208
G'uzor tumani	89136	611141	478977
Dehqonobod tumani	94002	714583	208686
Qamashi tumani	120944	261371	527003
Qarshi tumani	177993	239055	447043
Koson tumani	184484	600649	473221
Kitob tumani	141381	149977	428096
Mirishkor tumani	103678	454777	345715
Muborak tumani	121135	568549	252161
Nishon tumani	120494	325866	339882
Kasbi tumani	142292	212719	218017
Ko'kdala tumani	45534	193993	462433
Chiroqchi tumani	156877	421734	522270
Shahrisabz tumani	115165	125051	721205
Yakkabog' tumani	133715	166906	610644





## V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
O. Bozorov  
75 221-44-36 (1710)

**Manzil:**  
Qarshi sh, Mustaqillik shoh  
ko'chasi 2b

---